

JADIDCHLIK HARAKATINING XORIJDA O‘RGANILISHI

Nilufar IBRAGIMOVA,

*Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti
o‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi talabasi*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15878495>

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada jadidchilik harakatining asl maqsadi va taraqqiyparvarlarimiz faoliyatining chet eldagi o‘rganilish ko‘lami, hamda ahamiyati; yurtimizdan tashqarida jadidlar harakatiga qiziqqan olimlarning izlanishlari, jumladan, yaponiyalik, amerikalik, turkiyalik, va boshqa yurt olimlarining jadidchilik harakatini o‘rganishga qo‘shgan hissi haqidagi masalalar yoritiladi.*

***Kalit so‘zlar.** Jadidchilik, jadidizm, jadidshunos, jadidshunoslik an‘anasi, Turkiyalik jaddishunos, yaponiyalik jadidshunos, amerikalik jadidshunos.*

Jadidchilik yoki jadidlar atamasi bugungi kunda biz eng ko‘p duch keladigan tushunchalardan biridir. Asrlar, yillar davomida bizgacha yetib kelgan bu atamalar, shunisi bilan qiziq va dolzarbki, ularni bugunimizga ham, kelajagimizga ham bevosita bog‘lay olamiz. Jadidlar – taraqqiyparvarlar o‘zbek xalqi uchun, nafaqat o‘zbek xalqi, balki butun Turkiston, barcha Osiyo xalqlari uchun ma‘rifat ziyosini tarqatishga muvaffaq bo‘lganlar. Bu ma‘rifat ziyosini tarqatish vositalari esa ta‘limni yuksaltirishga xizmat qilishi kerak edi.

XIX asrning 90- yillaridan boshlab O‘rta Osiyoda tarqalgan jadidchilik harakati ilk bor Qrimda yuzaga kelgan. 1980- yillarda Ismoil Gaspirali o‘zining ilg‘or g‘oyalari bilan jadidchilik harakatini boshlab berdi. Xuddi shunday jadidlar ham ilk bora o‘zlarini “Ilg‘or”, “Taraqqiyparvarlar” deb atashdi. O‘sha paytlarda xalq orasida gazeta o‘qiydiganlarni “jadid” deyish urfga kiringach, jadidlar ushbu nomga sohib bo‘ldilar. Xalq orasida ham tabiiyki, “eskilar” va “yangilar” guruhi shakllandi.

Bu harakat xalqning ma‘rifatli bo‘lishi, ta‘limda yaxshi sifatga erishishi, chet el davlatlari yoshlariga Turkiston yoshlarining tenglasha olishi, tubanlik va jaholatdan xalqni qutqarish hamda shu yo‘l bilan tinchlik, mustaqillikka erishish yo‘lidagi ijtimoiy- siyosiy, madaniy- ma‘rifiy harakat edi. Chunki, o‘z erkiga ega bo‘lmagan bu xalqda mavjud tuzumga qarshi faqatgina ma‘rifat bilan qarshi kurasha olish imkoniyati bor edi. Xalqni bilimli va ilmi qilishga harakat qilgan bu jadidlar orasida yurtimizning turli viloyatlarida istiqomat qiladigan ziyoli insonlar ham bor edi. Ular Samarqandda Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Said Ahmad

“TURKIY XALQLAR ADABIYOTIGA DOIR ZAMONAVIY YONDASHUVLAR: MUAMMOLAR, OMILLAR, YECHIMLAR”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

Siddiqiy Ajziy; Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ubaydulla Asadullaxo‘jayev; Farg‘onada Hamza Hakimzoda, Obidjon Mahmudov va boshqalar edi.

Ular biz uchun ilk zamonaviy maktablarni, darsliklarni, darsxonalarni, hatto, sinfxona jihozlarini, teatrni, matbuot- gazeta va jurnallarni xorijda ko‘rib, o‘rganib, tajribalarini orttirib, yurtga qaytganda shu yangiliklarni ta‘sis etishdi. Ularning bu izlanish va harakatlari besamar ketmaganligini bugungi kun ta‘lim tizimimizda, sinfxonalarimizda, yoshlarimizning katta-katta yutuqlarida ko‘rishimiz mumkin. Shuning uchun ham jadidlarimiz faoliyati faqat turkiy xalqlar uchungina qiziq emasdir. Ularning harakat va targ‘ibot ishlari chet ellik qator olim va ma‘rifat kishilarini ham o‘ziga jalb qila olgan. Bulardan biri turkiyalik jadidshunos Temur Xo‘jayevdir.

90 yoshida Turkiyada vafot etgan oxirgi o‘zbek jadid o‘g‘loni Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jayevning o‘g‘li bugungi kunda jadidshunoslik sohasida ko‘plab izlanishlar olib borgan Temur Xo‘jayevdir. Temur Xo‘jayevning izlanishlari shunisi bilan muhimki, u jadidlar avlodidan bo‘lib, otasi Usmonxo‘jayev va onasi Hakima onadan jadidchilar yashagan davr haqida juda ko‘p ma‘lumotlarni olgan. Shu tufayli u bergan ma‘lumotlar va nashr ettirgan asarlari qiziqarliroq va haqiqatga yaqinroqdir. U hozirgacha turkiy xalqlar olamini, Markaziy Osiyo tarixini, mustaqillikkacha – sho‘ro davri va “egamanlik” kunlarini o‘zining o‘rganish obyekti qilib olgan.

Turkiston madaniy va siyosiy tarixiga bag‘ishlangan yuzdan ortiq maqolalar muallifi. Ularning aksari turk va ingliz tillarida, Turkiya, Amerika Qo‘shma Shtatlari, Ovrupo mamlakatlari, Hindiston va Yaponiya kabi davlatlarda chop etilgan.

2023- yil Toshkentda o‘tkazilgan “Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik”

mavzusida xalqaro ilmiy anjuman ishtirokchilari Buxoroda bo‘lishdi va Michigan universiteti professori Temur Xo‘ja o‘g‘li O‘zbekistonga katta takliflar bilan tashrif buyurib, Buxoroda otasi va uning ukasi Ataula Xo‘ja o‘g‘li yashagan uylarni jadidlar merosi nuzeyiga aylantirish orqali madaniy meros maskanlarini yana bittaga ko‘paytirishga o‘z hissasini qo‘shdi.

Jadidshunoslar orasida o‘zining targ‘ibotchiligi bilan alohida ahamiyatga ega bo‘lgan Mehmet Tutunju gollandiyalikdir. Uning jadidlar bo‘yicha izlanishlari shunisi bilan ahamiyatliki, Mehmet Tutunju Turkistondan chiqib, chet ellarda yashab, o‘sha yerlarda qolgan jadidlar haqida o‘rganadi.

Gollandiyadagi "Türkiye ve Azerbayjan arařtırmalar merkezi" xuddi shu vazifani boshqaradi. Temur Xo‘ja o‘g‘lining “Türkistanda yenilik hareketleri ve

ihdiralar" kitobi ayni shu jadidchilik mavzusida yozilgan bo'lib, Mehmet Tutunju bilan hamkorlikda nashr ettirilgan.

Izlanishlarga ko'ra, Usmon Xo'ja 1922-yil O'zbekistondan chiqib ketgan, Dushanbedagi urushda yarador bo'lib, Afg'oniston hududidan boshqa davlatlarga o'tgani sabab, yagona tirik qolgan jadidchi sifatida tilga olinadi. Temur Xo'ja o'gli aytadiki, "O zamanda sadece benim babam e kurtulabildi, o yuzd ben dogdum .Eger babam kurtulmasaydi,ben dogmazdim" deb javob beradi. Hamda shuni ta'kidlaydiki, yoshlar orasida jadidlar islomga, dinga qarshi bo'lgan, degan noto'g'ri qarashlar mavjud. Biroq jadid boshchilaridan Mahmudxo'ja Behbudiyning o'zi muftiy bo'lgan, Munavvarqori esa qori bo'lgan. Ular diniy va dunyoviy bilimni birga-uyg'unlashgan holda o'rganilishini istashgan"deya fikr biladiradi Temur Xo'jayev.

Yaponiyalik jadidshunos izlanishlari ahamiyati.

Yaponiyalik jadidshunos Hisao Komatsuning tadqiqot ishlari Fitratning adabiy merosi bilan bog'liq. Hisao shunday ta'kidlaydi, "O'rta Osiyodagi jadidchilik harakati o'ta murakkab hamda sirli hodisaki, bizning mamlakatda hali ham bu harakat o'rganilmagan. Men o'rganishim davomida bu insonlar, bu harakatlar haqida yaponiyalik yoshlarga ham ma'lumot berishni xohladim".

"Jadidlar merosiga mehrim o'zgacha" deya ta'kidlagan yaponiyalik jadidshunos olim Hisao Komatsu 1977-yilda "Yosh buxoroliklar" harakati to'g'risida dissertatsiya yoqlab, Abdurauf Fitrat faoliyatiga doir taqdimotlarini ham o'sha davrlarda boshlangan. Fitratning "Munozara" asari fotonusxasini professor Eduard Olvortdan iltimos qilib olib, tahlil qilgan. Olim Buxoro va Qozon shaharlari orasidagi madaniy aloqalar, Buxoro va Toshkentda jadidchilik faoliyati, Qo'qon xonligi va Usmonli turk davlati o'rtasidagi diplomatic aloqalar haqida ko'plab maqolalar yozgan. 1996 –yilda Fitratning hayoti va uning ma'rifatliqarashlariga bag'ishlangan "Inqilobchi O'rta Osiyo: bir jadidning qiyofasi"sarlavhali kitob chop ettirdi. Olim do'stlari Aftondil Erkinov va Zaynobiddin Abdurashidovdan o'zbek mumtoz adabiyoti va jadidchilik kadoirmaqolalar so'rab olib, ularni ingliz tilidagi "AsianResearchTrends" (Osiyo tadqiqot yo'nalishlari) jurnalida chop etishda boshqosh bo'lgan.

Hisao Komatsu Mahmudxo'ja Behbudiy va uning "Oyina" jurnali bibliografiyasi, Fitrat va uning "Munozara" asari, 1922-yili ikkitagina soni bo'lgan "Haqiqat"jurnali va boshqa manbalar xususida o'z izlanishlari haqida 2024- yil 20-dekabrda chop etilgan "Jadid" gazetasida xabar beradi.

Adeeb Khalid works "The Politics of Muslim Cultural Reform and "СозданиеУзбекистана".

The Politics of Muslim Reform: Jadidism in Central Asia” (“Musulmon islohoti siyosati-Markaziy Osiyoda jadidchilik”). The book is written by Adeb Khalid, A scholar who studies Central Asian History and culture.

Khalid’s analyzes: Adeb analyzes how Jadidism shaped modern Muslim thought. Comparative Studies : The book compares Jadidism with other reform movements in the Muslim world.

Historical Context: Khalid places Jadidism in the broader context of Central Asian history and the challenges faced by Muslims.

“Создание Узбекистана” (The creation of Uzbekistan – O‘zbekistonning yaratilishi) This work discusses the formation of the modern state of Uzbekistan. It examines how Soviet policies shaped the borders and governance of Uzbekistan. Actually, the influence of key political leaders on Uzbekistan’s formation is examined. These points provide a general understanding of Adeb Khalid’s works on Jadidism and creation of Uzbekistan.

Chet ellik olimlar va tadqiqotchilar ishlaridan namunalar:

1. Skott C. Levinning “ The jadids movement in Central Asia: an historical study” (“Markaziy Osiyodagi jadidlar harakati: tarixiy tadqiqot”)6–bu kitobda jadidchilik harakati, uning yetakchilari va Markaziy Osiyo tarixidagi ahamiyati o‘rganilgan.

2. Gulnora Abikeyeva “Zamonaviylik va musulmon olami: Markaziy Osiyodagi jadidlar harakati”7–bu kitobda jadidlarning modernizatsiya sa’y-harakatlari va ularning musulmon o‘ziga xosligi ta’sirini o‘rganadi.

Edvard Said va boshqalarning “Islom va G‘arb: Edvard Said bilan suhbat” kitobi faqat jadidlar haqida emas, balki Markaziy Osiyodagi modernizatsiya harakatlarini ham o‘z ichiga olgan.

4. Marat Tajinning “Yangi musulmon ziyolilari : Markaziy Osiyodagi jadidlar harakati” –bu kitob jadidlarning mintaqadagi zamonaviy tafakkurga qo‘shgan hissasi haqida qarashlar mavjud.

Maqolalar.

“Islohot va qarshilik : Markaziy Osiyodagi jadidlar harakati”, “Markaziy Osiyoda jadidchilik harakati”, “Jadidlar harakati va uning Markaziy Osiyo jamiyatiga ta’siri” –ushbu maqolalarda jadidlar duch kelgan qiyinchiliklar va muammolar, imperiya tazyiqlari va ularga javoblari hamda ularning mohiyatan siyosiy harakatlarining jamiyatga ta’siri yoritilgan

Yosh bo‘lishiga qaramasdan jadidlar haqida ingliz va o‘zbek tillarida kitob yaratgan Alibek Asatov hozirda Qo‘qon davlat pedagogika institutida magistrant talaba bo‘lib o‘qiydi. U “The emergence of jadidss in Central Asia and its entry

into the political arena” (“Markaziy Osiyoda jadidchilikning yuzaga kelishi va siyosiy maydonga chiqishi”) nomli asar yozdi. Bu asar 2023-yil noyabr oyida “Independently published” nashriyotida chop etilgan.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi kunda jadidlar faoliyatini o‘rganish ko‘lami kengaydi. Ular nafaqat O‘zbekistonda, balki Yevropa malakatlarida ham chuqur va keng o‘rganilmoqda. Yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek, Yaponiya, AQSH, Qozog‘iston va boshqa mamlakatlarda yashovchi jadidshunoslar kunimizda talaygina. Ularning bu tadqiqotlarini izlab, topib sizga ma‘lumot sifatida uzatishdan maqsadimiz shuki, taraqqiyparvarlarimiz islohotlarining bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagani, shu sababli o‘rganish obyekti sifatida ko‘p yillar davomida o‘rganilib, tadqiq qilingani siz o‘quvchiga ham jadidlarimizni o‘rganishga g‘ayrat va shijoat beradi degan umiddamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Daryo.uz. “Jadidchilik ham orif, ham davlatchilik va so‘z erkinligi edi”, “jadidlar islomga qarshi bo‘lmagan”. 2023.12.07
2. O‘RAZBAYEVA Mahbuba. XX asr ozarbayjon adabiyotida Ganjaviy obrazi tasviri. “Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an‘anasi” mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman material. 2024-yil 25-yanvar, 28-32-betlar. https://oriens.uz/media/conferencearticles/5_ORAZBAYEVA_Mahbuba_28-32.pdf.
3. Omanova, M. (2024). Nizomiy Ganjaviy merosining alisher navoiy ijodiga ta‘siri. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(20), 24-27.
4. Kadirova M.N. Technological solutions and innovative digital tools. Netherlands. <https://staff.tiame.uz/storage/users/829/articles/nyOCfZLWmrPLJiMMJmugxLcoqGUmIvB9cP2PPxaq.pdf>
5. Omanova, M. (2024). Bahouddin Naqshband to‘g‘risidagi ma‘lumotlar aks etgan asarlar. “O‘zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalari”. – Toshkent: 139-146.
6. Kalandarova, Dilafuz Abdujamilovna. "Research classification of Karl Reichl." *Current research journal of philological sciences* 2.11 (2021): 29-33.